

**INDIVIDUAL TA'LIM TRAEKTORIYASINI AMALGA OSHIRISH  
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA CHET TILLARINI O'QITISHNING  
SIFATINI OSHIRISHNING USULI SIFATIDA**

**Abatov Ruslan Kuatbayevich,**  
*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika  
instituti tayanch doktoranti  
O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston  
Respublikasi Nukus shahri*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada individual ta'lism traektoriyasini amalga oshirish oliy ta'lism muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini oshirishning samarali usuli sifatida qaroladi.

**Kalit so'zlar:** Individual ta'lism traektoriyasi, individual ta'lism yo'nalishi.

Hozirgi kunda dunyo hamjamiyatida ilm-fan va ta'lism jarayonlari tezkorlik bilan rivojlanib bormoqda. Bunday rivojlanishlar hech qachon to'xtab qolmaydi va bizdan ham shu global rivojlanish jarayonida sog'lom raxobat muhitini talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lism muassasalarida Kredit modul tizimida o'qitish jarayonlarining tadbiq etilishi, Evropa va Osiyo ta'lism makonlariga integratsiyalashuvi, talabalarning mobilligi, xorijiy o'liy ta'lism muassasalari bilan ikki tomonlama ta'lism (dual) tizimining joriy qilinishi, ayniqsa oliy ta'lism muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish muammosini dolzarb qilib qo'yemoqda. Ta'lism samaradorligini oshirish maqsadida yurtimiz oliygohlarida yangi innovatsion metodlar va yangicha yondashuvlar asosida ta'lism berish yo'lga qo'yilmoqda. Shunday samarali va zamonaviy yondashuvlardan biri shaxsga yo'naltirilgan ya'niy individual ta'lism traektoriyasi hisoblanadi. Individual ta'lism traektoriyasi asosida bunday tayyorgarlikmi ta'minlash tizimi uchta komponent birligidan tashkil topgan. Ular: ta'lism mazmuni, ta'lism texnologiyalari to'plami va mustaqil o'rghanish va ta'lism natijalarini monitoring qilish. [1; 237] Amalda talabaning individual ta'lism traektoriyasini amalga oshirishda talabalarga mustaqil ta'limning noto'g'ri yo'naltirilganligi bois ularning til o'rghanish ko'rsatkishlari past bo'lmoqda.

Ta'lim faoliyatini individuallashtirishning eng istiqbolli modellaridan biri bu individual ta'lim traektoriyasi g'oyasi hisoblanadi. Individual ta'lim traektoriyasi umumiy va qo'shimcha ta'lim dasturlarida alohida ahamiyatga ega bo'lgan asinxron ta'lim faoliyatining modellaridan biridir. Individual ta'lim traektoriyasi tushunchasi ko'plab nashrlarda tez tezdan uchrab turgan bo'lsa ham ularning talqini noaniqligicha qolmoqda. Ayrim hollarda individual ta'lim yo'nalishi va individual ta'lim traektoriyasi bir biri bilan shalkashtiriladi. Chuning uchun ham ushbu terminlarning ma'no jihatidan farqlarini aniqlash zarur.

S. V. Vorobyova va N. A. Labunskaya individual ta'lim yo'nalishini maqsadli ravishda ishlab chiqilgan differentsial ta'lim dasturi sifatida belgilaydi va talabaning o'zini yo'nalishini belgilashi va o'zini anglashini pedagogik qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.[2; 53; 7; 76]

Bir necha olimlarning individual ta'lim yo'nalishi bo'yicha berilgan aniqlamalari shuni ko'rsatadi: shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun maqsad va motivlarini hisobga olgan holda ta'limni individuallashtirish maqsadida ta'lim dasturining xususiyatlarini yo'nalishga bog'lash bo'lib hisoblanadi.

Masalan, I.V. Suteevaning fikricha: individual ta'lim yo'nalishi talabaning ta'lim faoliyatidagi dasturi ya'niy talim va kasbiy faoliyatini, ta'lim maqsadlari va natijalarini belgilash uchun talabaning qiziqishlari va ta'lim talablari asosida uning barcha qobiliyatlari va iste'dodlarini keyinchalik amalga oshirish maqsadida ochib berich va rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydigan ta'lim faoliyati dasturi. Bunday dasturning asosiy maqsadi individual ta'lim uchun sharoit yaratishdir. [4; 218]

Pedagogikada "individual ta'lim yo'nalishi" tushunchasiga parallel ravishda "individual ta'lim traektoriyasi" tushunchasi mavjud. "Individual traektoriya" tushunchasi fizikadan pedagogikaga kelgan murakkab, umumiy tushunchadir. Ta'rifdan ko'rinish turibdiki, pedagogik kontekstda fizik atamadan foydalanish alohida ma'no va majoziy xususiyatga ega. S. A. Vdovina [3], N. N.

Surtaeva [5], I. S. Yakimanskaya [6] kabi tadqiqotchilar individual ta'lim traektoriyasi tushunchasi kengroq ma'noga ega va amalga oshirishda bir nechta yo'nalishlarni o'z ichiga olishini takidlaydi va quyidagi yo'nalishlarni ko'rsatib beradi. Bular: mazmunli (individual ta'lim yo'nalishini belgilaydigan o'zgaruvchan o'quv dasturlari va o'quv dasturlari); faoliyat (maxsus pedagogik texnologiyalar); protsessual (tashkiliy jihat). Binobarin, individual ta'lim traektoriyasi individual ta'lim yo'nalishini (tarkibni o'zlashtirish ketma ketligi va uning tarkibiy qismlari-tarkibiy component), shuningdek, uni amalga oshirishning ishlab chiqilgan usuli ya'niy o'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasini mavjudligini ta'minlaydi.

A.V.Xutorskiy individual ta'lim traektoriyasiga "ta'limdagি har bir kishining shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishning shaxsiy usuli" deb ta'rif beradi. [8; 49] Bu yerda shaxsiy salohiyat uning tashkiliy faoliyati, kognitiv, ijodiy va boshqa qobiliyatlarining umumiyligini anglatadi. Talabalarning ushbu qobiliyatlarini aniqlash, amalga oshirish va rivojlantirish jarayoni ularning individual traektoriyalar bo'y lab ta'lim harakatini sodir qiladi.

Individual ta'lim traektoriyasi talabaning tayyorgarlik darajasiga mos keladigan o'quv dasturlarini tanlash imkoniyatini yaratadi, shuningdek, uni amalga oshirishning bosqichma-bosqich yo'lini belgilaydi. Xorijiy tillar bo'yicha individual ta'lim traektoriyasi talabaning shaxsiy faoliyati va refleksiv yondashuvlarning asosi tamoyillarini hisobga olgan holda quriladi. Shaxsiy faoliyat yondashuvi bu har bir xorijiy til o'rganuvchi talabaning til o'zlashtirish faoliyatini amalga oshirishning u yoki bu usuli bilan ajralib turishi va ta'lim strategiyalari har bir talabaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda rejalashtirilishi va ishlab chiqish zarur bo'ladi. Bu talabalarga o'quv materiallarini tanlashda aks etadi. Yangi avlod xorijiy til darsliklari integrativ yondoshuv asosida tuzilgan bo'lib, talabalar tomonidan ma'lumotlarni idrok etishning turli turlari va metodlarini hisobga olgan holda tuzilgan. Mashqlarning turli shakllari va turlari oq'uv jarayonining har bir ishtirokchisiga o'zining ijodiy va ilmiy

salohiyatini kashf qilishga imkon beradi. Refleksiv yondashuv bunda talabalar har bir darsda va butun semester davomida o'qituvchi tomonidan tashkil qilingan topshiriqlarni bajarish asnosida o'zini o'zi tekshiradi, baholaydi va tahlil etadi. Xorijiy tillarni o'qitishda refleksiv yondashuvni amalga oshirish yo'llarining biri o'quvchining til portfelini, o'qituvchining esa pedagogik portfelini yuritishi hisoblanadi.

Talabalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda asosiy kompetentsiyalardan universal, umumiy madaniy va kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish maqsadida fan materiallarini o'zlashtirishning individual ta'limga traektoriyasi ishlab chiqish zarur bo'ladi. Talabalarni xorijiy tillarda o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etishning ushbu usuli hamma holatlarda ham samarali natijasini ko'rsatmasligi mumkin. Individual ta'limga traektoriyasini amalga oshirishdagi asosiy qiyinchiliklardan biri bu talabalarning mustaqil ishslash ko'nikmalarining etishmasligi hisoblanadi. Ushbu muammoli holatlarni oldini olish maqsadida o'qituvchi individual ta'limga traektoriyasi doirasida ish tutishi kerak. Bu talabaga o'quv jarayonida mustaqil ravishda qaror qabul qilish, unga ijodiy va akademik salohiyatini ochib berishga, shu bilan birga o'qituvchi bilan doimiy aloqada bo'lismi imkonini beradi. Ushbu bosqichda o'quvchini doimiy pedagogik qo'llab-quvvatlashni tashkil etish individual ta'limga traektoriyasini samarali amalga oshirish va individual ta'limga yo'nalishiga o'tish sharti sifatida alohida ahamiyatga ega. Bu pedagogik qo'llab-quvvatlash predmeti - talaba bilan birgalikda o'z maqsadlarini, imkoniyatlarini, qiyinchiliklarni aniqlash va unga o'rganishda o'zining to'liq salohiyatiga erishish uchun kerakli natijalarga erishishga imkon beradigan yo'llarni belgilash uchun yordam berish jarayoni.

Individual ta'limga traektoriyasini amalga oshirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- talabaning chet tiliga tayyorgarlik darajasini diagnostikasi. (kirish imtixonini natijalari yoki til bilish darajasi);

- Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti talablari asosida o'zgaruvchan kurs dasturini ishlab chiqish;
- kursning asosiy dasturi doirasida bir nechta individual ta'lim yo'nalishlarini yaratish;
- individual vazifalarni belgilash, o'quvchilar o'rtasida ularning tilni o'rganish darajasini hisobga olgan holda individual ta'lim yo'nalishlarini taqsimlash;
- fikrlash usullaridan foydalangan holda talaba ishi natijalarini doimiy ravishda baholash (talabaning individual til portfeli), shuningdek yakuniy nazorat;
- uzliksiz pedagogik yordam va talabaning asosiy kompetensiyalarini shakllantirish monitoringi.

Individual ta'lim traektoriyasi talabaning nafaqat pedagogik, balkim psixologik xususiyatlarini ham hisobga olgan holda fanni o'zlashtirishga yordam berish uchun mo'ljallangan. Faqat eshitish, vizual va kinestetik o'quvchilar uchun emas, balki zamonaviy texnik qurilmalarsiz o'z borligin tasavvur qila olmaydigan virtual talabalar uchun ham vazifalarni ishlab chiqish zarurati mavjud. Bu xususiyatni hisobga olgan holda, ta'lim jarayonida xorijiy tilda interaktiv dasturlar va internet resurslaridan foydalaniлади.

Individual ta'lim traektoriyasini amalga oshirish doirasida talaba nafaqat uni o'zi tanlashi, balki chet tilini o'rganishdagi faoliyati uchun individual strategiyani ham qurishi kerak. Dastlabki bosqichda u diagnostik nazorat yordamida tilni bilish darajasini aniqlaydi. Keyinchalik talaba fan dasturining malaka talablari bilan tanishadi va chet tilini o'rganishda o'z maqsadi va ehtiyojlarini belgilaydi. Keyin unga fanning o'quv modullarini o'rganish ketma-ketligini belgilaydigan bir nechta individual o'quv traektoriyalarini tanlash taklif etiladi, barcha kerakli asosiy va qo'shimcha materiallar taqdi..., m etiladi va uslubiy yordam ko'rsatiladi. Kirish imtixon natijalariga yoki til bilish darajasiga ko'ra guruhlarga taqsimlanadi. Har bir daraja uchun intizom dasturining o'zgaruvchan qismi ishlab chiqilishi zarur bo'ladi. Har bir o'qituvchi talaba bilan individual ravishda

materialni o'zlashtirish ketma-ketligi va tezligini belgilaydi, chet tilini o'rganish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asosiy qiyinchiliklarga e'tibor beriladi.

Talabalarni chet tiliga tayyorlashda individual ta'limga traektoriyasini amalga oshirishda so'zsiz bur qancha qiyinchiliklarga duch kelinadi. Bulardan: Talabalarining o'z salohiyatidan kelib chiqqan holda to'g'ri ta'limga traektoriyasini tanlay olmasligidir. Talabaning o'z ta'limga traektoriyasini tanlashda bo'lsa o'qituvchilarning roli katta bo'ladi. Sababi har bir fan o'qituvchisi har bir fanni o'qib o'rganish orqali qanday malaka va bilimlarni egallashini yaxshi biladilar.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'limga tizimida individual ta'limga traektoriyasini amalga oshirish orqali ta'limga sifatining ortishiga va talabalarining fanlarni o'zlashtirish natijalarining ortishiga erishish mumkun.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Бордовский Г. А., Нестеров А. А., Трапицын С. Ю. Управление качеством образовательного процесса: монография. СПб.: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 2001. с. 237.
2. Воробьева С. В. Теоретические основы дифференциации образовательных программ: автореф. дисс. ... д. пед. н. СПб., 1999. с. 53.
3. Вдовина С. А. Индивидуальные образовательные траектории как средство реализации субъект-субъектных отношений в учебном процессе современной школы / М-во образования и науки Рос. Федерации, Федер. агентство по образованию, ГОУ ВПО Ишимский гос. пед. ин-т им. П. П. Ершова. – Ишим: [б. и.], 2006. –с. 111.
4. Сутеева И. В. Модель индивидуального образовательного маршрута в рамках исследовательской деятельности обучающегося // Ярославский педагогический вестник. Психологопедагогические науки. – 2012. – № 4. – Т. II. – с. 217–221.
5. Суртаева Н. Н. Педагогические технологии естественного обучения // Химия в школе. – 1998. – № 7. – С. 13–17.
6. Якиманская И. С. Требования к учебным программам, ориентированным на личностное развитие школьников // Вопросы психологии. – 1994. – № 2. – С. 64–67
7. Лабунская Н. А. Педагогическое исследование современного студента. СПб.: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 1999. с. 76.
8. Хуторской А.В. Развитие одаренности школьников: Методика продуктивного обучения: Пособие для учителя. М., 2000. с. 49.